

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.I.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

O'QUVCHILARDA IJTIMOY-AXLOQIY IDEAL HAQIDAGI TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN-MOHİYATI**СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ О СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНОМ ИДЕАЛЕ****THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' IDEAS ABOUT THE SOCIO-MORAL IDEAL****Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi¹**¹Qo'qon pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati bayon etilgan hamda axloqiy qoidalar va talablar jamiyatning asrlar davomida shakllangan qadriyat bazasini tashkil etashi va umumiy xususiyatga ega shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligi asoslab berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается содержание и сущность развития у студентов представлений о социально-нравственном идеале, а также то, что моральные правила и требования формируют сформировавшуюся веками ценностную базу общества, а также актуальность формирования и развития общего признака оправдано.

Abstract

In this article, the content and essence of the development of students' perceptions of the social and moral ideal is explained, and the fact that moral rules and requirements form the value base of the society formed over the centuries and the relevance of the formation and development of a common characteristic is justified.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-axloqiy, ideal, tasavvurlar, innovatsiya, tarmoq, Axloqiy tafakkur, qadriyat bazasi, hulq-atvor, insoniy fazilatlar.

Ключевые слова: социально-этический, идеал, воображение, новаторство, сеть, Нравственное мышление, ценностная база, поведение, человеческие качества.

Key words: socio-ethical, ideal, imagination, innovation, network, Moral thinking, value base, behavior, human qualities.

KIRISH

Dunyodagi murakkab global o'zgarishlar sharoitida davlat hokimiyatining aholi turmush darajasini oshirishga intilishi, qashshoqlikni tugatish, insonlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash, ularga munosib mehnat shart-sharoitlarini yaratish, erkaklar va ayollar o'rtasidagi gender tenglikni ta'minlash, har bir davlat va jamiyatda ijtimoiy farovonlikni o'rnatish aynan axloqiy ideal tamoyillari orqali amalga oshiriladi. Axloqiy ideal bu – zamonaviy davlatlar intilishi kerak bo'lgan oliy maqsad hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan jamiyat hayotida tub o'zgarishlar va yangilanishlar insoniyatni abadiy ideali bo'lgan adolatli fuqarolik jamiyati sari ilgarilama harakatini ifodalaydi. Eski metodologiya asosida shakllangan ideallar o'rniga fuqarolik jamiyati talablari asosida shakllangan shaxs estetik idealini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. «Yuksak ideallar yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, o'zligimizni anglash, g'urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog'lab maydonga chiqish ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni qadrlaymiz». Shu nuqtai nazardan shaxs estetik idealini rivojlanish tendensiyasini qayta ko'rib chiqish, ayniqsa, shaxs axloqiy va estetik idealini uyg'unlashtirish, uning ichki tizimini yangicha talqin qilish, zamonaviy fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish dolzarb umumnazariy masala va obyektiv zaruratdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" asosida olib borilayotgan izchil islohotlarda ham shaxs estetik idealini har tomonlama rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axloq tarixiy hodisa, axloqning tadqiqot obyektidir. Axloq deganda ma'lum bir jamiyatda yashovchi kishilar o'rtasida shakllangan axloqiy xulq-atvor normalari va pozitsiyalari majmuini

tushunamiz. Axloq shaxsning jamiyatda yashash, boshqalar bilan uyg'un munosabatda bo'lish qobiliyatini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, axloq - bu ezgulik va axloq qoidalari majmuidir. Axloqiy me'yorlarga rioya qilish orqali har bir shaxs o'zining axloqiy va ezgu fazilatlarini shakllantiradi. Axloq tarixan odamlarning birga yashashga ko'nikishi, muloqot yo'lida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardan chiqish jarayonida shakllangan.

Axloq (lotincha *moralis* — odat) — odamlar va ijtimoiy birlashmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyil; inson xulq-atvorini tartibga solish funksiyalarini bajaradigan ijtimoiy institut, ya'ni ijtimoiy fazilatlar majmui. Axloq deganda ijtimoiy voqelikning axloqiy sifatlarini (nomus, mehr-oqibat, adolat, xulq-atvor, urf-odatlar va boshqalar) aks ettiruvchi ijtimoiy ongning alohida shakli tushuniladi.

Axloqiy tafakkur statik jarayon emas, aksincha u dinamik xususiyatga ega. Lekin axloqiy qadriyatlar zahirida ma'lum (*statik xususiyatga ega*) ideal turadi. Ideal axloqni nazorat qilishi, o'zning trayektoriyasidan chiqarmaslik vazifasini o'taydi. Hozirgi sharoitda insoniy fazilatlar, kreativ qobiliyatlar uyg'un rivojlanishi barobarida, turli faoliyat turlari, ehtiyojlar, negativ ma'naviy va axloqiy harakatlarining namoyon bo'lishini insonning tabiiy axloqini yaxlitligi buzilishiga olib keldi. Axloqiy tafakkurni normal taraqqiyotiga xalal bergan – bu texnokratik tafakkurdir. Jamiyatda yalpi axborotlashtirish natijasida mantiqiy fikrlashsiz insonni qadriyatlar olamidanda chalg'itadi, foyda, bahoga asoslangan utilitar pragmatik natijalarga, inson dunyoqarashining bir yoqlamaligiga yo'naltiradi. Inson o'z hayotini o'zi tanlagan, qabul qilgan hamda amal qiladigan qadriyatlar tizimi asosida quradi. Ammo tegishli tanlovni amalga oshirishi uchun, u doimo o'zini o'zi yaratish bilan shug'ullanishi, hayotining turli jabhalarida yuksak mohiyatga ega mukammal namunalardan mo'ljal olmog'i lozim.

Insonning yashashdan maqsadini belgilovchi yaxlitlik bu – qadriyatli olamidir. Inson o'z etnik makonida dastlabki qadriyatlarni anglaydi, ahamiyatli, qadri narsalarni o'zlashtiradi. Bu borada S.L.Rubinshteyn ".....qadriyat - bu dunyodagi biror narsaning inson uchun ahamiyatligidir. Bu ahamiyatligiga, ya'ni qadriyatlarga u ideal g'oyasini kiritgan"[1], deydi. Qadriyat va ideallar olami insonga yashashdan maqsad, ma'no beradi. Haqiqat, adolat, go'zallik tushunchalarini o'zlashtirishga drayver vositasini o'taydi. Qadriyatlar afzalligiga, ko'lamiga, xususiyatiga ko'ra turlarga bo'linib ketadi. Lekin inson uchun barchasi o'z ahamiyatiga ega. Idealchi? Ideal qanday ahamiyatga ega Ideal insonga maqsadni qo'yib intilishga, haqiqat, adolat va go'zallikni hamma uchun umumiy bo'lgan jihati haqida tasavvurni shakllantirishda katta ko'mak beradi. Masalan, axloqiy tafakkur tarixida ko'plab o'gitlar, pand-nasihatlilar va didaktikaga boy ma'naviy meros mavjud. Ularni aksariyatida sof insoniy axloq, diniy talablarni bajarishga majburlovchi, jamiyatdagi tartibotni saqlovchi g'oya, axloqiy nazariyalar va yuksak ma'naviy ideallar tarannum qilinadi. Axloqni mukammal holati – bu komil inson bo'lishga birinchi qadam sifatida ko'rsatiladi. Buni dinamikasini diniy qadriyatlar bilan mustahkamlanadi. Demak, axloqiy tafakkurda ideal va qadriyatlar yonma-yon keladi va bir-birini taqozo qiladi.

Axloqiy nazariya va oddiy axloqiy ong bu kategoriyalar mazmunini turli darajada oladi. Har bir axloqiy g'oya (tushunish) me'yoriy xususiyatga ega. Axloqiy ideal "taqlid" deganda yuksak axloqiy ma'naviyat va hayotda taqlid qilishga intilishni yuzaga keltiradigan axloqiy fazilatlar tashuvchisi bo'lgan yuksak axloqiy shaxs obrazi orqali axloqiy talablarni idrok etish jarayoni tushuniladi. Har bir tarixiy davr o'ziga xos axloqiy idealga ega bo'lgan. O'sha ideal haqidagi fikr va qarashlar falsafiy ta'limotlarda, diniy ta'limotlarda, azaliy asarlarda o'z ifodasini topdi. Masalan, Arastu ideal deganda, u dunyo ishlaridan, kundalik hayotdan ajralgan holda haqiqat nima ekanligi haqida fikr yurituvchi odamni nazarda tutadi. Immanuel Kant axloqiy idealni har bir shaxs ichidagi "komil inson" bilan o'lchanadigan harakat va harakat ko'rsatmalari deb hisoblagan. Inson o'sha ichki hukm ta'sirida yashaydi, ijod qiladi, lekin u bilan hech qachon bir darajada turolmaydi, uning darajasiga ko'tarila olmaydi. Har bir faylasuf, olim, dinshunos o'z ideali bilan yashaydi. Axloqiy ideal shaxsni axloqiy tarbiyalash maqsadini ham belgilaydi. Ushbu idealga erishish uchun inson irodasi axloqiy idealga erishish istagini amalga oshirish uchun harakat qiladi.

Axloqiy ideal axloqiy tamoyillar va me'yorlarning mazmuniga ham ta'sir qiladi. Ta'sir darajasi insonning qiziqishiga bog'liq, vaziyat va sharoitlarga bog'liq. Masalan, saxovatli, obro'li, qat'iyatli, qurolni mukammal biladigan, shuningdek, o'z vatanini, aziz va yaqinlarini himoya qilish uchun uni eng zarur hollarda qo'llaydigan shaxsni axloqiy ideal deb hisoblash mumkin.

E.B.Andriyanov ta'kidlashicha, "Axloqiy ideal - bu odamlarning eng yaxshi axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan komil inson haqidagi g'oyasi va namunasi, xatti-harakati standarti, insonning sa'y-harakatlari yo'naltirilishi kerak bo'lgan maqsad. Axloqiy ideal odamlarning o'z hayotlaridan noroziligiga, axloqiy o'zini o'zi yaxshilash yoki mavjud voqelikni o'zgartirish orqali uni yaxshiroq, baxtli qilish istagiga asoslanadi".[2]

Axloqiy ideal tushunchalari butun jamiyat darajasida ham mavjud. Oliy adolat va insonparvarlikka asoslangan jamiyat haqidagi orzular hamisha jamoatchilik ongida yashab kelgan. Ijtimoiy ideal - bu ma'lum bir ijtimoiy guruhning yaxshiroq ijtimoiy tuzilish va yuqori adolat haqidagi g'oyalari aks ettirilgan mukammal jamiyat g'oyasidir.

Axloqiy kategoriya bo'lgan "ideal" tushunchasiga quyidagi talablar qo'yiladi: barcha ne'matlarni odamlar o'rtasida teng taqsimlash, inson huquq va burchlari o'rtasidagi mutanosiblik, insonning o'z mahorati va qobiliyatiga ko'ra jamiyatdagi o'rni, har kimga qadri bo'lishi, u keltiradigan ijtimoiy foyda nuqtai nazaridan, shaxsiy va jamoat, xayrixoh hayot va baxtga erishish imkoniyati o'rtasidagi muvofiqlikning mavjudligi va boshqalar. Faqat yuksak axloqiy qadriyatlardan bahramand bo'lish orqali idealga erishish yo'lida yurish kerak.

Axloqiy tafakkur tarixida "axloqiy idealning shaxsiy, milliy va umumbashariy Ideal va qadriyatlarni bir-biriga nisbatan ustuvorligi bo'yicha psixologlar va faylasuflarni fikrlari farq qiladi. Masalan, psixolog Ye.B.Starovoytenko idealga yetishishni muayyan usul va vositalarini taqdim qilgan. Ya'ni: "1) individ hayotining o'ziga xos ijtimoiy muhiti; 2) ma'naviy-amaliy faoliyatining shakllari va mazmuni; 3) shakllangan qiziqishlar, ehtiyojlar, qadriyatlar; 4) ushbu individga qaratilgan ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti; 5) boshqa odamlarning uning fazilatlarini va yutuqlariga bo'lgan e'tibori darajasi; 6) individning o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarini shakllantirishga ongli intilishi"[3]. Ushbu muallif bu intilishlarni individni maqsadga intilishi ko'rinishida tasvirlab bergan. Unda insonga fikrlash, fahm-farosat, axloqiy ong, refleksif qobiliyat, badiiy tasavvur bo'lishi kerakligi ta'kidlaydi. Ideal inson ruhiyati, mohiyati bilan bog'langan, ma'naviyatini asosini tashkil qiladi. Lekin uni ma'lum intilishlarni vositasi sifatida tasvirlash yaramaydi. Ideal inson tafakkurida mavhum tushuncha sifatida paydo bo'lib, maqsad va ijodkorligiga katta impuls beradi. Qadriyatlar olami insonga yetarli bo'lmay qolishi, undan uzib ketish maqsadida ideal rivojlanaveradi. Axloqiy tafakkur taraqqiyotida ideal va qadriyatlar insonning ma'naviy mukkammallikka intilishini ifodalab, uni olamni o'zlashtirishda, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda, o'tmish va kelajak haqida orzu, o'y-xayollarini tartibotini amalga oshirib kelgan.

Qadriyatlar dunyosini shakllantirishi va rivojlantirishida idealning ahamiyati juda katta bo'lib, unda inson hayoti davomida qadriyatlarni o'zlashtirish dinamik yo'lidan o'tib, komillik intilish salohiyatini rivojlantirib boradi. Makon va zamondan qat'iy nazar ideal murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida shaxs ongi va ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Ideal individual qiyofa, namuna, obraz tarzida har bir inson qalbi va ongida shakllanadi. Uning tarbiyaviy mohiyati shundan iboratki, ideal har bir shaxsga tabiat, jamiyat va insonga nisbatan shaxsiy munosabatlarni oldindan belgilashga va shunga yarasha ijodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishda o'z tafakkur va faoliyat yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Ideal u qaysi shakl va kimda bo'lishidan qat'iy nazar, optimistik xarakterga ega bo'ladi.

Bizning eramizdan oldin Arastu ifodalagan axloq-odob bilan bugungi kundagi fikrimizga kelgan baxt, ezgulik, shaxsning jamiyatni baxtli qilish maqsadi tushunchalari o'rtasida so'z o'xshashligidan tashqari umumiylik yo'q. Bugungi kunda axloq nima ekanligini shaxs emas, balki jamiyat belgilab beradi, ba'zan esa insonni o'z xohish-istaklaridan tashqari qarorlar qabul qilishga majbur qiladi. Bu turli mamlakatlar jamiyatlarida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, din insonning turmush tarzini shakllantiradigan mamlakatlarda axloq qonunlar asosida amalga oshirilishi bilan majburiy bo'lib qoldi. Axloqiy xatti-harakatlar kundalik hayotimizda har kuni takrorlanadigan, halol bo'lish, to'g'ri ish qilish, yolg'on gapirmaslik, odamlarni hurmat qilish, birovning haq-huquqini tortib olmaslik, odamlarga yordam berish kabilar kabi harakatlardir. Bunday faoliyat bilan shug'ullanadigan kishilar axloqli, halol va obro'li odamlar sifatida tavsiflanadi.

Axloqiy faoliyat insoniy harakatlardir. Boshqa tomondan, hayvonlarning harakatlari ham mavjud. Biroq, inson faoliyati hayvonlarda ko'rgan xatti-harakatlar va harakatlardan juda farq qiladi. Hayvonlarning xulq-atvori va harakatlari tabiiy mayl, instinkt va majburlashlarga asoslanadi. Masalan, qushlar uya quradilar, ma'lum vaqtda uchib ketadilar, ov qiladilar, ko'payadilar va hokazo. Bunday xatti-harakatlar va harakatlar instinktlar bilan belgilanadigan o'zgarimas, majburiy, mexanik

harakatlardir. Insonlarda ham shunday instinktiv harakatlar mavjud. Oziqlanish, o'zini himoya qilish va ko'payish kabi. Lekin bulardan tashqari insonning erkin bajaradigan harakatlari ham bor. Bu ixtiyoriy harakatlar. Bularni majburiy harakatlardan farqlash uchun ular axloqiy harakatlar deyiladi. Bular biz ixtiyoriy va ongli ravishda qiladigan harakatlardir. Ular ham erkin harakatlardir, chunki ular irodaga tayanadi. Inson faoliyatining bu xususiyatini ko'rgan olimlar qadim zamonlardan beri bu faoliyatni tushuntirishga harakat qilishgan. Bu ishni bajaradigan falsafa amaliy falsafa yoki axloq falsafasi (etika) deb ataladi.

Axloq va qadriyat haqidagi tushunchalarni yanada mukammallashtiruvchi, insonni ichki va tashqi ma'naviy-ruhiy qarashlarini aks ettiruvchi tushuncha ideal sifatida nomlana boshlagan. "Ideal qadriyat sifatida insonning dunyoga bo'lgan munosabatlarining tiplariga ko'ra: kognitiv, estetik, axloqiy, samarali ko'rinishlarda shakllanishi mumkin".[4] Demak, ideal *birinchidan*, inson o'z dunyosini, atrof-muhitni tartibga soluvchi, tushunchalarga tartibot berish nuqtai-nazarini anglatgan, *ikkinchidan*, ideal inson ilm-fanni yaratuvchisi, bilish qudrati, o'ziligini anglash jarayonini anglatgan, *uchinchidan*, ideal ijobiy va salbiy voqelik mezonlari, go'zallik va xunuklik, simmetriya va asimmetriyani belgilashda hukmron, hakam tushunchani anglatgan, *to'rtinchidan*, ideal inson qadriyat tizimi bilan dialektik aloqadorligini anglatuvchi yo'lchi-yulduz, mo'ljal ma'nolarini anglatgan.

NATIJALAR

Inson jamiyatida yaratuvchi, tashqi kuch, taqdirni tashqaridan belgilanishi, narigi dunyo haqidagi tasavvurlar asosida yashay boshlagandan boshlab, dini va axloq chambar-chas rivojlandi. Dastlabki taqiq, qoidalar va ko'rsatmalar albatta axloq degan tushunchada jamlandi. Undagi tushunchalar insondan balandda, undan mukammal, ilohiy tuyg'u, transsendentni xususiyatini anglatgan. Shuning uchun "...axloqiy ideal – bu odamlarning o'z hayotidan noroziligi, axloqiy o'zini-o'zi yaxshilash yoki mavjud voqelikni o'zgartirish orqali uni yaxshiroq, baxtli qilish istagidir".[5] Axloqni o'zi ideal xarakteriga ega tushuncha bo'lib, u o'zida axloqiy idealni jamlaydi, turli insoniy maqsadlarni, munosabatlarni mujassamlashtirib, hayotda kishilarni ijobiy xulq-atvor madaniyatiga tortib turadigan ijtimoiy ong shakliga aylanadi.

Jamiyatda katta bosim, atmosfera kuchiga ega bo'lgan axloq normalarni bajarilishi va hurmat qilinishi diniy e'tiqod asosida mustahkamlanadi, nazorat qilinadi va boshqariladi. Axloqiy ideal barkamol inson, mutlaq mukammallik, universal qobiliyatli, yaxlit maqsadga muvofiqlikni talab qiluvchi shaxs modelidir. Axloqiy idealga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, uning paydo bo'lishi bilan "axloqiy ongning tarkibida umuman bor bo'lgan va bo'lishi kerak bo'lgan narsa o'rtasidagi qarama-qarshilik tufayli keskinlashadi. Axloqiy ideal komil inson g'oyasini aks ettiradi".[6] Axloq va ideal bir-biri bilan tortishib, ziddiyatli hodisa sifatida e'tirof etiladi. Katta avlod o'zini tajribalari, hayotiy haqiqatlari, normalarni yosh avlodga singdiradi, ayni paytda yangi va eski qadriyatlar to'qnashadi. Shu nuqtada axloqiy ideal ziddiyatli tarzda shakllanadi.

Axloq insonning ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'zining xulq-atvor va insoniylik fazilatini namoyon etishidir. Axloqda odamlarning muayyan jamiyatda yashash tarzini belgilovchi jamoaviy, shaxsiy va milliy xulq-odob meyorlari, o'zaro muomala va muloqotda namoyon bo'luvchi ma'naviy kamolot ramzidir.

Axloqiy mukammallik yo'q yoki talab qilinmaydigan joyda ma'naviy yuksalish va mukammal shaxs – komil inson haqida nazariya shakllanmaydi. Axloqiy ideal zaminidagina insonlarda hayotiy maqsad, jamiyat va millat oldidagi burch, adolat va adolatsizlik, ezgulik va yovuzlikka nisbatan munosabat me'yorlari shakllanadi. Axloqiy ideal kelajak avlodni olijanoblik, baxt, adolat, ezgulik, yuksak maqsadlar sari da'vat etuvchi dunyoqarashni ifodalab, axloqiy mukammallik sari chorlaydi, yoshlarning hayotdan maqsadini, turmush tarzini, sog'lom-baxtli hayot haqidagi tasavvurlarini, go'zal xulq-atvori namunalarini o'zlashtirish vositalarini tanlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, yoshlarning ma'naviy yuksalishi uchun axloqiy ideal bir qator vazifalarni bajarishi mumkin ekan. Masalan,

- *birinchidan*, o'z hayotini tartibga solish vazifasi: jamiyatda hukmron tushuncha, tamoyillar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, tashqi dunyoni tartibga keltiradi;
- *ikkinchidan*, o'zi va boshqalarni xatti-harakatlarini baholovchi vazifasi: azaldan o'rnatilgan milliy, fundamental qadriyatlar, yangi umuminsoniy tamoyillar asosida baholaydi, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik mezonlarini o'zlashtiradi;

– *uchinchidan*, tarbiyaviy vazifasi: yosh avlodni shaxs bo'lib voyaga yetishda axloqiy ideal ma'naviy-mafkuraviy rol o'ynaydi. Yoshlar "to'ng'ich", ishonarli, tajribali ideal bilan "nihol" bo'lib shakllanayotgan ideal o'rtasidagi muvofiqlik, konsensusni ko'radilar, ta'lim-tarbiya, g'oyaviy savod chiqaradilar. Yangi O'zbekistonda azaliy shakllangan axloqiy ideal ma'naviy yuksalish ramzi sifatida qabul qilinadi;

– *to'rtinchidan*, yoshlarni dunyoqarashini kengaytirish vazifasi: axloqiy ideal haqidagi g'oyalar hukmron tushunchalar prizmasi orqali qabul qilinishi, mustahkam axloqiy e'tiqod orqali shakllangan barkamol shaxs pirovard maqsad hisoblanadi. Axloqiy ideal qat'iy talablari asosida mukammallik ramzi ijtimoiy-tarixiy vaziyatda shakllanadi. Xususan, komil inson g'oyasi ham ana shu axloqiy ideal talablari asosida paydo bo'lgan. Komil inson, yetuk inson, barkamol avlod, axloqiy idealning timsollari, ramzlari, namunalari sifatida tarkib topib boraveradi. Ijtimoiy-tarixiy vaziyatlarda paydo bo'lgan va makon va zamonda cheklangan timsollar bo'lishi mumkin, lekin axloqiy ideal zamon va makonda cheklanmagan;

– *beshinchidan*, insonparvarlik vazifasi: axloqiy ideal inson ma'naviyatining barcha qatlam va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgani uchun, albatta, tarixan tashkil topib, milliy hayot va an'analar, millat va umumbashariy tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. U shaxsning diniy, milliy, individual xususiyatlari mushtarakligida axloqiy yuksaklik sari chorlaydi.

Hozirgi global ijtimoiy-madaniy rivojlanish davrida barkamol avlod tarbiyasi va ma'naviy yuksalish talablari o'ziga xos axloqiy ideal tizimining yaratilish zaruriyatini qo'ymoqda. Axloqiy idealning yuksak tamoyillari talablari asosida timsolli, namuna, ibratli, o'rnak bo'ladigan yuksak ma'naviy-axloqiy tizimining yaratilishi hozirgi ommaviy, madaniy siljishlarni oldini olishga kafolatdir. An'anaviy tarzda "axloqiy ideal mavjud ijtimoiy munosabatlar, tarixiy-madaniy muhit va ma'naviy paradigmalardan kelib chiqib, kelajak avlod uchun vorislik sifatida milliy, shaxsiy va diniy xususiyatlar bilan tarkib topib boraveradi"[7]. Axloqiy ideal milliy fundamental qadriyat va ideallarni umuminsoniy imperativlar bilan uyg'unlashtirib, yangi shakllanib kelayotgan global qadriyat, ideallar olamida transformatsiyalarni amalga oshiradi.

Hozirgi paytda axloqiy ideal yoshlarga nisbatan milliy g'oyani, milliy o'zlikni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzu-umid, maqsadlarini anglatish, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad – uchinchi Renessansni amalga oshirish vazifasini ifoda etishi zarur. Jamiyatimizda mavjud xilma-xil va erkin fikrlar, g'oyalardan, dunyoqarashdan qat'iy nazar, barcha millat va elatlarni yagona g'oya atrofida birlashtirishi, har qanday millatchilik, ekstremistik kabi negativ kayfiyat, qarashlardan mutlaqo xoli yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib olishi darkor.

Yoshlarni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishda milliy xususiyatga ega axloqiy ideal shakllanishi kerak. A.Samadovning fikricha, "axloqiy ideal ichki tizimida ko'rsatilgan omillar orasida inson tafakkurining rivoji, inson ongi va uning tabiat, jamiyat va inson haqidagi bo'lajak maqsad va vazifalar haqidagi bilimi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun axloqiy ideal tizimi inson ruhiyatini belgilovchi xotira, bilgan, ko'rgan, his qilingan bilimgina emas, balki bilishi mumkin bo'lgan, insonni unga tomon chorlovchi va rag'batlantiruvchi ichki ma'naviy-axloqiy kuch sifatida ham amal qiladi". Ayni paytda hozirgi axloqiy ideal Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turuvchi, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilishga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan axloqiy g'oyalar tizimi bo'lishi kerak.

MUHOKAMA

Binobarin, yoshlarni milliy, umuminsoniy jihatlar bilan birga qamrab olayotgan zamonaviy "axloq" jamiyat mafkurasiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Aslida mafkura mohiyat va maqsadi jihatidan ijtimoiy idealning ma'rifatli jamiyat qurish yo'lida mazmunan birlashtiradi, ideal shakllarning (ijtimoiy, siyosiy axloqiy, estetik) qaror topishida keng imkoniyatlar yaratadi. Mafkura g'oyalarni birlashtiruvchi kuch bo'lsa ideal ham g'oyalarni mukammal, birlashtiruvchi, yig'uvchi xususiyatga egadir.

Agar jamiyat mafkurasini muayyan g'oyalar tizimidan tashkil topishini nazarda tutsak, yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi qanday jamiyat qurmoqchi ekanligimiz, yangi ma'naviy makonni qanday tasavvur etishimiz bilan bog'liq g'oyalarga borib taqaladi. Yangi ma'naviy makoni

“.....Yangi O‘zbekistonning ma‘naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz yashaydigan ma‘rifatli jamiyatdir”.

Chunki o‘z milliy g‘oyasiga, muayyan jamiyat taraqqiyotining falsafiy-metodologik asosiga ega bo‘lmagan jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yadi. Nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kantning fikricha, “g‘oya yo‘nalish bersa, ideal inson tafakkurini kelajakdagi ufqlarini belgilab beradi”. Bundan tashqari, har qanday ezgu niyat ham inson ongidan chuqur o‘rin egallamasa, inson tafakkuri shu niyatga hamohang o‘zgarmasa barcha sa‘y-harakatlar bekor bo‘ladi. Shuning uchun yangi ma‘naviy makonni orzu qilgan xalq o‘z axloqiy idealiga ega bo‘lishi kerak. Ammo xalq va jamiyat yangi ufqlarni ko‘zlagan ekan uning maqsadi ham aniq bo‘lishi, bu maqsadlarni amalga oshirishda puxta va izchil o‘ylangan, milliy qadriyatlar va ideallarni izchil amalga oshirishga qaratilgan milliy g‘oya zarurdir.

Yangi O‘zbekiston uchun milliy g‘oya ko‘p millatli xalqning ma‘naviy ehtiyojlarini o‘zgarmas manbai hisoblanib, yangi ma‘naviy makonni yaratishga hissasini qo‘shishi, ijtimoiy-tarixiy jihatdan shakllanib kelgan milliy orzu-intilish, maqsadlarni yaxlit axloqiy idealga jamlashi, O‘zbekiston jamiyatidagi barcha millat, elatlarga xos bo‘lgan xususiyatlar, urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlar va ideallarni umumiy maxrajga keltirishi kerak. Ana shu shakllanishi kerak bo‘lgan yangi ma‘naviy makonni tadrijiyligini hisobga olsak, milliy g‘oya xalqimizning o‘zligini anglashga, o‘z milliy-ma‘naviy qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarini tiklab, saqlab, e‘zozlab kelajak avlodga transformatsiya qiluvchidir.

Axloqiy ideal milliy g‘oya va uning tamoyillari tufayli odamlar tasavvurida oydinlashadi, odamlarni ezgulik, olijanoblik, buyuk kelajak va tinchlik yo‘lida birlashtirib, ularning o‘rtasidagi mehr-muhabbat va yaxshi hayotga bo‘lgan intilishlarida safarbar etadi.

XULOSA

Axloq o‘z ildizlari bilan qadim zamonlarga borib taqaladi. Bizni eng qadimgi ajdodlarimizdan ajratib turadigan ulkan vaqt masofasini tasavvur qilish uchun biz quyidagi miqdorni olishimiz mumkin. Insoniyat shakllanishining tarixiy davrini butun yuz foiz deb hisoblasak, uning bir foizigina “aqlimizni bilgan” tarixiy davrdir, ya‘ni, insoniyatning g‘ururli besh-olti ming yillik madaniy-sivilizatsiya davri o‘zidan oldingi qafasdagi insoniyat “tarixi” bilan solishtirganda deyarli qadrsizdir. Dunyo olimlarining “ikkinchi muallimi” unvonini olgan sharq peripatetizmi yoki Arastu izdoshlaridan biri Al-Farobiy axloqni yaxshi va yomonni farqlash imkonini beruvchi fan deb hisoblagan. Al-Farobiy o‘zining axloqiy asarlarida yunon axloqining markaziy tushunchasi evdemoniyaga tayanadi. Ulug‘ ustoz “Baxtga yetaklovchi” risolasida narigi dunyoning so‘zsiz baxti haqida emas, balki tirik insonning haqiqiy hayotidagi baxt haqida gapiradi. Bunga erishish uchun inson o‘zini doimo takomillashtirib borishi kerak. Bir so‘z bilan aytganda, al-Farobiy o‘z maqsadiga erishish insonning o‘ziga bog‘liq, deydi. Inson o‘zini doimo ma‘naviy jihatdan takomillashtirib borishi kerak. Inson o‘zini tevarak-atrof bilan tanishish orqaligina haqiqatga erisha oladi, degan xulosaga keladi. Al-Farobiyning axloqiy nuqtai nazarni ko‘rsatadigan yana bir asari “Saxovatli shahar aholisining nuqtai nazari”dir. U yerda faylasufning fikricha, shahar aholisi baxtli bo‘lishi uchun yaxshi mer shaharni boshqarishi kerak. Yaxshi hokimning xususiyatlari quyidagilardan iborat: adolatli, mehribon, yaxshi bilimli, yaxshilikka jonkuyar, mard, saxovatli. Shaxsning baxti butun jamiyat baxti bilan bog‘liq, deb hisoblagan Farobiyning evdemonik holati ham mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 021, 276-bet.
2. Қаранг: Кант И. Критика чистого разума. – М.: Финикс Ростов-на-Дону, 1999 – С.465
3. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии / С.Л.Рубинштейн. – СПб.: Питер-Ком, 1998. – 688 с
4. Евразийская мудрость от А до Я: толковый словарь Беларусь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://terme.ru/termin/nravstvennyi-ideal.html>. – мурожат санаси: 30.06.2023.
5. Дробницкий, О.Г. Структура морального сознания / О.Г.Дробницкий / Хрестоматия по педагогической аксиологии. – М.: Издательство
6. Московского психолого-социального института; Воронеж: МОДЭК, 2005. – 480 с. 17-36
7. Samadov A. Shaxs estetik ideali: shakllanish va rivojlanish muammolari.
8. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti. 2021, 99-bet.